



JIGAR SIRROZINI ERTA ANIQLASHDA ULTRATOVUSH  
TEKSHIRUVINING (UTT) DIAGNOSTIK O'RNI

*Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti*

*Abdukarimova Halima Islom qizi*

+998950804565 [Abdukarimovahalima41@gmail.com](mailto:Abdukarimovahalima41@gmail.com)

**Dolzarbligi:** Jigar sirrozi surunkali jigar shikastlanishining so'nggi va qaytmas bosqichi bo'lib, unda jigar parenximasi yallig'lanish jarayoni fonida tolali biriktiruvchi to'qima bilan almashib boradi. Mazkur patologiya dunyo bo'yicha yuqori o'lim ko'rsatkichlari bilan birga keladi va asosan 40–60 yoshli bemorlar orasida tashxislanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, har yili sirroz asoratlaridan 1,3–1,5 million nafar bemor hayotdan ko'z yumadi. Kasallikni ilk bosqichda aniqlash bemorning yashash sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi hamda og'ir asoratlarning oldini olishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, invaziv aralashuvni talab qilmaydigan diagnostika usullari, jumladan ultratovush tekshiruvi (UTT), klinik amaliyotda keng tatbiq etilmoqda.

**Maqsad:** Ultratovush tekshiruvi (UTT) yordamida jigar sirrozini erta bosqichda aniqlashdagi diagnostik imkoniyatlarni baholash.

**Material va usullar:** Tadqiqot 42 nafar bemor ishtirokida amalga oshirildi; ishtirokchilarning yosh ko'rsatkichi 30 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan oraliqni qamrab oldi. Har bir bemor tasdiqlangan standart protokol bo'yicha UTTga yo'naltirildi. Tekshiruv qorin bo'shi organlari uchun tavsiya etilgan sharoitda, och qoringa va chalqancha yotgan holatda o'tkazildi. Baholash jarayonida jigarning shakli, o'lchami, parenkimal tuzilishi, portal gipertenziya belgilari



hamda tashqi konturning tekisligi yoki g'adir-budurligi inobatga olindi. Olingan sonografik ko'rsatkichlar bemorlarning klinik va laborator ma'lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

**Natijalar:** Sonografik tekshiruv natijalari shuni ko'rsatdiki, jigar sirroziga xos morfologik o'zgarishlar 42 nafar bemordan 25 tasida (59,5%) qayd etildi.

Jigar tashqi konturining g'adir-budurligi – aniqlangan 25 bemorning 17 tasida (68%) kuzatildi

Parenkima echogenligining diffuz oshishi – 25 bemorning 15 tasida (60%) ro'yxatga olindi

Portal vena diametrining kengayishi (>13 mm) – 25 bemorning 16 tasida (64%) aniqlandi

Taloqning kattalashishi (splenomegaliya) – 25 bemorning 14 tasida (56%) qayd etildi

Qorin bo'shlig'ida suyuqlik to'planishi (astsit) – 25 bemorning 9 tasida (36%) aniqlanildi

Kompensatsiyalangan (erta) bosqichdagi sirroz – 11 nafar bemorda tasdiqlandi

Dekompensatsiyalangan (kech) bosqichdagi sirroz – 14 nafar bemorda aniqlandi

**Xulosa:** Ultratovush tekshiruvi jigar sirrozini tashxislashda texnik jihatdan qulay, bemorga zararsiz va klinik jihatdan yuqori samaradorlikka ega bo'lgan usul ekanligi tasdiqlandi. Mazkur metod kasallikning ilk belgilarini aniqlashda, patologik jarayonni dinamik nazorat qilishda va paydo bo'lgan asoratlarni ob'ektiv baholashda ishonchli diagnostik vosita sifatida xizmat qiladi.